

RIVOJLANIB BORAYOTGAN DAVRDA INSON HUQUQLARI VA ERKINLIKLARINI AMALIY TA'MINLASH MEKANIZMLARI (MUAMMO VA YECHIMLAR)

Po'latov Otabek Azamjonovich

**Namangan davlat universiteti Yuridik
Fakultet o'qituvchisi.**

**Olimjonov Biloliddin Azizbek o'g'li
Yuridik fakulteti 1-bosqich talabasi**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20311537>

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi tajribasida inson huquq va erkinliklarini qay darajada ta'minlanganligi, kafolatlari va ijro mexanizmini real tarzda qollanishga doir masalar yoritildi, shu bilan birga ijro yuzasidan vujudga kelayotgan ijtimoiy muammolar va ularga yuridik jihatdan yechimlar berildi.

Kalit so'zlar: dolzarb, mexanizm, raqobat, kelajak, huquqiy tizim, qonunchilik, amaliy, konstitutsionalizm.

Аннотация: В данной статье освещены вопросы обеспечения прав и свобод человека в практике Республики Узбекистан, гарантии их реализации и механизмы практического применения. Вместе с тем рассмотрены социальные проблемы, возникающие в процессе реализации, а также предложены их юридические решения.

Ключевые слова: актуальность, механизм, конкуренция, будущее, правовая система, законодательство, практика, конституционализм.

Abstract: This article highlights the level of ensuring human rights and freedoms in the practice of the Republic of Uzbekistan, their guarantees, and mechanisms for their practical implementation. In addition, social problems arising during the implementation process and legal solutions to these issues are discussed.

Keywords: relevance, mechanism, competition, future, legal system, legislation, practice, constitutionalism.

Avvalo, rivojlanib borayotgan davrdagi bir nechta rivojlangan davlatlarning asosiy maqsadlaridan biri – bu inson huquq va erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan siyosati, shu bilan birga davlatimiz rahbari, muhtaram prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning bu boragi siyosati mavzuning katta ahamiyatga ega ekanligining istboti bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida huquqiy davlatning muhim prinsipi – hokimiyatlar bo'linishi mustahkamlab qo'yilgan. Jumladan, Asosiy qonunimizning 11-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi prinsipiga asoslanadi.

Davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasida qayd etilganidek, o'tgan davr mobaynida mamlakatimizda davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish sohasida amalga oshirilgan islohotlar muhim maqsadga, ya'ni, hokimiyatlar bo'linishi konstitutsiyaviy prinsipini hayotga izchil tatbiq etish, hokimiyatlar o'rtasida o'zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanatining samarali tizimini shakllantirish, markazda va joylarda qonun chiqaruvchi va vakillik hokimiyatining vakolatlari hamda nazorat vazifalarining rolini

kuchaytirish, sud tizimini liberallashtirish va uning mustaqilligini ta'minlash bo'yicha g'oyat dolzarb chora-tadbirlarni ko'rishga qaratilgan.

Ushbu prinsip hayotga joriy etilishi tufayli mamlakatimizda xalqchil va demokratik davlat hokimiyati tizimi shakllandi. Sud hokimiyati, jumladan, uning markaziy bo'g'ini – Konstitutsiyaviy sud davlat hokimiyatining mustaqil tarmog'i sifatida qaror topdi. Konstitutsiyaviy sud ayrim normativ-huquqiy hujjatlarning Asosiy qonunimizga mosligini aniqlash, Konstitutsiya va qonunlarning normalariga sharh berish, qonunchilik tashabbusini amalga oshirish vakolatlari vositasida hokimiyat tarmoqlari bo'linishi prinsipini ta'minlash hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish borasida izchil faoliyat yuritayotir. Konferensiyada O'zbekistonda hokimiyatlar bo'linishi konstitutsiyaviy prinsipini izchil va tizimli ravishda amalga oshirishda hokimiyat tarmoqlari o'rtasida o'zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanatining ta'minlanayotgani davlat va jamiyat oldida turgan vazifalarni hal etishda muhim omil bo'layotgani alohida qayd etildi.

Mahalliy va xorijiy ekspertlarning fikricha, konstitutsiyaviy odil sudlov – demokratik davlatchilikning muhim belgisidir. Konstitutsiyaviy odil sudlov konstitutsiyaviy nazoratning oliy shakli bo'lib, zamonaviy demokratik davlatchilikning alohida talabi, zarur instituti hisoblanadi. Konstitutsiyaning ustunligini ta'minlash hamda qonuniylik muhitini yaratish inson huquqlari va erkinliklarini kafolatlashning ishonchli garovidir. Janubiy Koreya Konstitutsiyaviy sudi sudyasi Chang Jong Kimning fikricha, konstitutsiyaviy nazorat organlarining vakolatlarini kengaytirish, institutsional va vazifalarga doir mustaqilligini mustahkamlashga ko'plab davlatlarda e'tibor qaratilmoqda. Ushbu idoralarning qarorlarini ijro etish bo'yicha aniq mexanizmlarni joriy etish vositasida konstitutsiyaviy nazorat idoralarning hokimiyatlar bo'linishi prinsipini amalga oshirishdagi rolini kuchaytirish tendensiyasi kuzatilmoqda.

O'zbekistonda sud-huquq tizimi har tomonlama puxta o'ylangan va xalqaro standartlarning eng ilg'or tajribalarini o'zida mujassam etgan tizimli institut sifatida shakllangan, – deydi Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyaviy sudi sudyasi Mixail Kleandrov. Umumiy yurisdiksiya sudlarining ixtisoslashgani, hakamlik sudlari tarmog'i shakllangani ishlarni sifatli va samarali ko'rib chiqishga xizmat qilmoqda. Konstitutsiyaviy sud qonun hujjatlarining Konstitutsiyaga qanchalik mosligiga doir ishlarni ko'rish orqali har bir hokimiyat tarmog'ining o'z vakolati doirasida ish yuritayotgani, ularning hujjatlarida inson huquqlari va erkinliklariga rioya qilinganiga baho beradi. Bularning barchasi huquqiy davlatning muhim sharti hisoblangan qonun ustuvorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Malayziya Apellatsiya sudi raisi Tan Sri Raus Sharifning ta'kidlashicha, konstitutsiyaviy nazoratning samaradorligini ta'minlashda konstitutsiyaviy nazorat obyektlarini va ularni ko'rib chiqish chegaralarini aniq belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda me'yorlarning sud nazorati har tomonlama qamrab olinishini ta'minlash dolzarb hisoblanadi. Konstitutsiyaga muvofiq bo'lmagan biron-bir normativ-huquqiy hujjat sud nazoratidan chetda qolib ketmasligi, sud organlarining nazorat vakolatlari takrorlanmasligi lozim. O'zbekiston bag'rikeng diyor sifatida jahonga tanilgan, – deydi Pokiston Oliy sudi sudyasi Qozi Fayoz Iso. – Inson huquq va manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan islohotlar pirovardida bu mamlakatning gullab-yashnashiga yo'l ochayotganiga guvoh bo'ldik. Darhaqiqat, qayerda hokimiyat tarmoqlari zimmasiga qo'yilgan vazifalar to'laqonli ado etilsa, o'sha yerda rivojlanish, taraqqiyot bo'ladi. Bunda sudyalarning zimmasiga ham alohida mas'uliyat yuklanadi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan huquqiy tizimni modernizatsiya etish jarayonlarida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi alohida o'rin tutmoqda. Huquqiy tizimni, demokratik qadriyatlarni muhofaza qilishda, ularni xalqimiz turmush tarziga singdirishda e'tiborga molik ishlar amalga oshirilayotir. Kelgusida Konstitutsiyaviy sud faoliyatining yanada takomillashtirilishi sudlov jarayonlarining modernizatsiya qilinishi va demokratlashuviga, konstitutsiyaviy odil sudlovning ochiqligi va shaffofligini ta'minlashga, inson huquq va erkinliklarining samarali va o'z vaqtida himoyalashini mustahkamlashga qaratilishi lozim.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi / yangi tahrir / Toshkent, 2023
2. PF-6012 "Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" / 23.06.2020
3. A.S.Kamolova "Inson huquqlari: global muammo va yechimlar" / Toshkent, 2024
4. D.O.Dinayarova "Yangi O'zbekistonda inson huquqlari, erkinliklari va ularning huquqiy kafolatlari" / Toshkent, 2026